



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNING VAZIFALARI

**Sabirov Akram Axmedovich**

IIV Akademiyasi Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası katta o'qituvchisi

**Kamronbek Ismoilov Dilshodbek o'g'li**

**Mirahmadova Gulnoza Dilshodovna**

IIV Akademiyasi kursantlari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8164380>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> July 2023

Accepted: 15<sup>th</sup> July 2023

Online: 19<sup>th</sup> July 2023

### KEY WORDS

### ABSTRACT

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi 2-moddasida Jinoyat protsessual qonunchilikning vazifalari bayon etilgan bo'lib:

-Jinoyatlarni tez va to'la ochish;

- jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berish;

- aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etish;

- qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlash .

Va ushbu vazifalar jinoyat kodeksining barcha moddalarida o'z tasdig'ini topgan.

Masalan, Jinoyat Protsessual kodeksining 11-moddasi **qonuniylik** – sudya, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, himoyachi shuningdek jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Kodeks va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga aniq rioya etishlari va ularning talablarini bajarishlari shart.

Qonunlarni aniq bajarishdan va ularga rioya qilishdan har qanday chekinish, qanday sabablarga ko'ra yuz berganidan qat'iy nazar, jinoyat protsessida qonuniylikni buzish hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ushbu prinsip orqali jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga yordam qilmog'i lozimligi belgilab qo'yilgan.

Jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi O'zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasiga muvofiq jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni faqat sud amalga oshiradi.

Prokuror, tergovchi va surishtiruvchi jinoyat alomatlari topilgan har bir holda, o'z vakolatlari doirasida jinoyat ishini qo'zg'atishlari, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash va qonunlarning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlaydi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat yuz berganligini, uning sodir etilishida kim aybdorligini, shuningdek u bilan bog'liq barcha holatlarni aniqlashi shart.



Ish bo'yicha haqiqatni aniqlash uchun faqat Jinoyat-protsessual kodeksda nazarda tutilgan tartibda topilgan tekshirilgan va baholangan ma'lumotlardan foydalanish mumkinligi, gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan, sudlanuvchidan, jabrlanuvchidan, guvohdan va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslardan zo'rlash, qo'rqitish, huquqlarini cheklash va qonunga xilof bo'lgan o'zgacha choralr bilan ko'rsatuvlar olishga harakat qilish man etilishi, ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqilishi kerakligi, ishda yuzag akeladigan har qanday masalalani hal qilishda ayblanuvchini yoki sudlanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og'irlashtiradigan holatlar aniqlanishi va hisobga olinishi lozimligi qonunning jinoyatlarni tez va to'la ochishga to'liq mos keladi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

Bundan ko'rib turilibdiki inson huquq erkinliklari nafaqat konstitutsiya balki jinoyat protsessual kodeks bilan ham tartibga solinadi.

Jinoyat ishini yuritish uchun mas'uliyatli barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shart.

Bu g'oya jinoyat protsessual kodeksida ham o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida inson huquqlarini ta'minlashning ustuvor kafolati hisoblangan ushbu norma jinoyat protsessual koseksida alohida prinsip sifatida mustahkamlab qo'yilgan.

Jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'I nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.

Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni faqatgina sud amalga oshiradi.



Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida eng muhim jihatlardan biri bu aybsizlik prezumpsiyasini alohida bir norma sifatida mustahkamlab qo'yilganligidir.

Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas.

Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar:

Jinoyat protsessual kodeksining 23-moddasida aybsizlik prezumpsiyasi ham belgilangan bo'lib, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas. Aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim.

Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega.

Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ularga yetkazilgan zararining o'рни qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi himoyalaniش huquqiga ega. Himoyalaniش huquqi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud zimmasidagi gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga va sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarini tushuntirib berish hamda u o'ziga qo'yilgan ayblovdan himoyalaniش uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan



foydalanishda haqiqiy imkoniyatga ega bo'lishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rish majburiyati bilan ta'minlanadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega.

Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ularga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega.

Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ularga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.

Hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas.

Jinoyat protsessual qonunchiligiga muvofiq qonunlar makonda va zamonda amal qiladi. Ya'ni jinoyat ishlarini yuritish, jinoyat sodir etilgan joydan qat'iy nazar, basharti O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlari bila shartnoma va bitimlarida o'zgacha qoidalar belgilanmagan bo'lsa, ish yuzasidan surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi yuritilayotgan paytda amalda bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq olib boriladi. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida inson huquqlarini ta'minlashning ustuvor ko'rinishlaridan biri bu shaxs faqat amalda rasmiy e'lon qilingan qonun hujjatlariga muvofiq hukm qilinishi va bir jinoyati uchun takroran hukm etilishi mumkin emasligi asosiy qoidalardan biri sifatida mustahkamlab qo'yilgan.



Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida 2008-yildan boshlab jazo tizimida libellashtirilishi munosabati bilan o'lim jazosi bekor qilinib uning o'rniga umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan edi. Endi esa bu konstitutsiyada bir butun norma sifatida qat'iylashtirib qo'yildi.

Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

1995 yil 28 oktyabr kuni "Qiynoqqa qarshi konvensiya" O'zbekiston Respublikasida ratifikatsiya qilingan. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida jinoyat protsessida ishlarni yuritish qiynoq, zo'ravonlik, shafqatsiz yoki inson qadr- qimmatini kamsituvchi tazyiq bilan yuritilishi mumkin emas.

Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas.

Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart.

Ushlab turish jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyati bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirish yoki yo'q qilib yuborishini oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iboratdir.

Ushlab turish muddati shaxs amalda erkin harakatlanishga bo'lgan huquqlarining cheklangan paytidan e'tiboran ko'pi bilan 48 soatni tashkil etadi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan zarur va yetarli asoslar taqdim etilganda ushlab turish sudning qarori bilan qo'shimcha ravishda 48 soatga uzaytirilishi mumkin.

Alohida hollarda, ushlab turilgan gumon qilinuvchiga nisbatan sud tomonidan qamoqqa olish uy qamog'i yoki garov tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilishi mumkin. Bunda gumon qilinuvchiga ushlangan kundan e'tiboran 10 kun ichida ayblov e'lon qilinishi kerak.

Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Ushbu norma tom ma'noda yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqchilligi va demokratikligini ko'rsatib chiqishini yaqqol namoyon qiladi.

Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz – ariza beruvchining o'zi sodir etgan jinoyati to'g'risida u shu jinoyati tog'risida u shu jinoyatni sodir etishda gumon qilinmasdan va unga ayb e'lon e'tilmasdan oldin bergan xabaridir.

Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz og'zaki yoki yozma bo'lishi mumkin. Surishtiruvchi, prokuror yoki sud og'zaki xabarni bayonnomada aks ettiradi, unga arz qiluvchining shaxsiga doir ma'lumotlar kiritiladi va unda arzning mazmuni birinchi shaxs nomidan bayon



qilinadi. Bayonnomaga arz qiluvchi va surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya imzo chekadi.

Bizning fikrimizcha yangi qabul qilingan konstitutsiyadagi bu masalalar orqali bosh qomusimizga ilgari mavjud bo'lmagan normalarning kiritilishi bilan tom ma'noda jinoyt ishlarini yuritishning ilgari kodeksda mavjud normalari endi asosiy qonunda mustahkamlab qo'yildi. Endi qat'iy belgilangan va ahamiyatga molik bo'lgan fuqorolarning qonuniy manfaatlariga daxldor tarzda ularning huquq va erkinliklariga ta'sir etuvchi qoidalarga rioya etilishining asosiy qonunda aks ettirilishi bu tom ma'noda yuridik inqiloblardan biri hisoblanadi

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida ham tashkil etilgan referendum yakunlariga ko'ra qabul qilingan Yangi O'zbekiston konstitutsiyasining va undagi alohida e'tirofg sazovor bo'lgan normalar atroflicha muhokama qilindi va ularning amaliy ahamiyati tushuntirib berildi. Bu albatta nafaqat jinoyat ishlarini sudda yuritish va balki butun tergov sohasida oldinga tashlangan yuksak qadamlardan bir bo'lsa ajab emas.